

**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTIDA**  
**texnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilarni institutning mos**  
**bakalavriat ta’lim yo‘nalishlariga suhbat asosida o‘qishga qabul qilish**  
**bo‘yicha tuzilgan savollar bazasi.**

Texnikumning 5.53.08.01-Kimyoviy texnologiya (ishlab chiqarish turlari bo‘yicha) - o‘rta maxsus professional ta’lim mutaxassisligi bazasidan, Institutning 60710100 (5320400) —Kimyoviy texnologiya (ishlab chiqarish turlari bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishiga.

№	Savollar
<b>1-mavzu. Mamlakatda o‘z sohasiga oid amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushunish</b>	
1.	O‘zbekiston Respublikasi to‘qimachilik sanoatini yanada isloh qilishning muhim yo‘nalishlari.
2.	2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida ma‘lumot bering.
3.	O‘zbekiston iqtisodiyotida to‘qimachilik sanoatining tutgan o‘rni, xamda pardozlash yo‘nalishidagi texnika va texnologiyalar haqida tushuncha bering.
4	Respublikamizda faoliyat olib borayotgan to‘qimachilik materiallarini pardozlash korxonalari xaqida malumot bering
5	Respublikamizda paxta-to‘qimachilik klasterlarini tashkil qilishdan maqsad.
<b>2-mavzu. Bakalavriat ta’lim yo‘nalishini tanlashda motivatsiya (soha kasbining mohiyati va ijtimoiy ahamiyatini tushunish, unga doimiy qiziqish ko‘rsatish)</b>	
1.	O‘zingizni shaxsiy rivojlanishingiz uchun nimalar muhim deb hisoblaysiz? So‘nggi yillarda shaxsiy rivojlanish orqali taniqli bo‘lgan soha vakillarini bilasizmi?
2.	Kimyoviy texnologiya yo‘nalishiga o‘qishga kirishingizdan maqsad? Kelajakda yurtimiz iqtisodiyotini rivojlanishi uchun nimalar qilmoqchisiz?
3.	To‘qimachilik maxsulotlari kimyoviy texnologiyasi yo‘nalishi mutaxassisi sifatida sohani rivojlantirish uchun qanday rejalaringiz bor?
4	To‘qimachilik sanoati mahsulotlari assortimentlari, ularni kimyoviy pardozlash texnologiyalari xaqida ma'lumot bering.
5	Pardozlash korxonlarini rivojlanish istiqbollari nimalardan iborat?
6	Tolalarni sinflanishiga misollar keltiring?
7	Tabiiy tolalarning xossalari va tuzilishi?
8	Kimyoviy tolalarning xossalari va tuzilishi?
9	To‘qimachilik sanoatining qanday tarmoqlari mavjud?
10	Qanday kimyoviy jarayonlarni bilasiz?
11	Tolali materiallarni pardozlashning qanday rivojlanish bosqichlari mavjud?
12	Qanday kimyoviy sistemalar mavjud?
13	Pardozlashning kasbiy tushunchasi nimani anglatadi?
14	Pardozlash korxonalarida qaysi davlatlar firmalarining uskunalari ishlatiladi?

15	Tolalarning fizik xossalari nimalardan iborat?
16	Tolalarning kimyoviy xossalari nimalardan iborat?
17	Pardozlash jarayoniga ta'sir etuvchi omillarni sanab o'ting?
18	Matolarning rang mustaxkamligi nimani bildiradi?
19	To'qimachilik matolarini pardozlash necha bosqichdan iborat?
20	To'qimachilik matolarini pardozlashga tayyorlashdan maqsad nima?
21	Nima uchun matolar bo'yaladi?
22	Matolarga maxsus xossa berish va mahsulot ko'rinishiga ega bo'lish jarayoni qaysi texnologiya asosida olib boriladi?
23	Nima uchun matolarga gul bosiladi?
24	Paxta, ipak va jun tolasida qanday reaksiya kirishuvchi funksional guruhlari mavjud. Ularni sanab o'ting?
25	Aralash tolali matolarning o'ziga xosligi nimalardan iborat. Afzallik va kamchiliklarini keltirib o'ting?
<b>3-mavzu. Shaxsiy-kasbiy xususiyatlar (o'qishga qobiliyat, kasbiy vazifalarni hal qilishda amaliy faoliyat, intizomlilik, hamjihatlik, mas'uliyatlilik, qaror qabul qilishda mustaqillik darajasi, shaxsiy yutuqlar mavjudligi, shuningdek, o'z ustida ishlash va ijodkorlik qobiliyatlari)</b>	
1.	Shaxsiy yutuqlarga erishganligi bo'yicha portfolio hujjatlari o'rganib chiqiladi va baholanadi
2	Texnikumda o'qigan davrda kimyo sohasida qanday shaxsiy yutuqlarga erishgansiz? O'zingizni tashabbusingiz bilan institutda o'tkaziladigan turli tanlovlarda faol ishtirok eta olaman deb o'ylaysizmi?
3	O'zingizning shaxsiy yutuqlarga erishganligingiz bo'yicha so'zlab bering, agar mavjud bo'lsa portfolio hujjatlaringizni taqdim eting.
<b>4-mavzu. Tanlangan bakalavriat ta'lim yo'nalishi sohasidagi bilim va kasbiy ko'nikmalarning mavjudligi</b>	
1.	To'qimachilik tolalarining turlari. Tolalarning asosiy xossalari.
2.	Sellyulozaning oddiy efirlari, ularni olinishi va qo'llanishi.
3.	Ip gazlamalarni pardozlashga tayyorlash jarayonlari
4	To'qimachilik materiallarini bo'yash xaqida umumiy ma'lumotlar, bo'yash usullari, jixozlari
5.	To'qimachilik materiallariga gul bosish xaqida ma'lumotlar. Matolarga gul bosish usullari, jixozlari
6	Paxta tolasini nimadan tashkil topgan?
7	Ipak tolasini nimalardan tashkil topgan?
8	Matolarni oqartirishdan qaysi kimyoviy moddalar qo'llaniladi?
9	Pardozlash jixozlarining turlari?
10	Pardozlash jarayonida hosil bo'ladigan nuqsonlarni keltiring?
11	Nima uchun trikotaj polotnolari "bo'sh" (jgut) holatda pardozlanadi?
12	Bo'yash jarayonida qo'llaniladigan bo'yovchi moddalar necha sinfga bo'linadi? Ularni sanab o'ting?
13	Bo'yash vannasi tarkibiga bo'yovchi moddadan tashqari yana qanday kimyoviy

	moddalar kiradi? Ularning vazifalari nimalardan iborat?
14	Gul bosish jarayonida asosan qaysi bo‘yovchi moddalar qo‘llaniladi?
15	Gul bosish jarayoni qaysi texnologiyalar asosida olib boriladi?
16	Charm va mo‘ynaga kimyoviy ishlov berish mumkinmi?
17	Matolarni yuvish-quritish-en berish jixozining vazifasi nimalardan iborat?
18	Makromolekulalarning konformatsiyasi va konfiguratsiyasi deganda nimalarni tushunasiz?
19	Polimer deb nimaga aytiladi?
20	YUqori molekulyar birikmalar deb nimalarga aytiladi?
21	Sellyulozaning oddiy va murakkab efirlari, ularni olinishi va qo‘llanishi?
22	Sellyulozaning tuzilishi, oksidlovchi va qaytaruvchilar ta’siri?
23	Oqsil tolalar xaqida umumiy ma’lumotlar. Oqsillarning aminokislotali tarkibi?
24	Jun xossalari. Kislota, suv va bug‘, tuz, oksidlovchilar va qaytaruvchilar ta’siri?
25	Gul bosish jarayoni deganda nimani tushunasiz?

**Kafedra midiri**

**(imzo)**

**M. Xasanova**